ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati..... 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya..... 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida)..... 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий..... 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him..... 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang..... 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida)..... 109

al-stilistik o‘ziga xosliklarini kontekst yordamida izchil tahlil qilishni talab etadi. Tahlillarimiz natijasida insonning fizik xususiyatlarini ifodalovchi tematik turkum tahliliga ko‘ra, o‘zbek tilida, asosan, insonning chiroyi, yoshi va qaddi-qomatini ifodalab kelishi aniqlandi. Konnotatsiya elementlariga ko‘ra, insonning fizik xususiyatlarini ifodalovchi frazeonimlar aksariyat hollarda ijobiy baho ottenkasiga egaligi kuzatildi. Funksional-stilistik imkoniyatiga binoan mazkur tematik guruhga mansub frazeonimlar, asosan, so‘zlashuv, qisman kitobiy uslubga xosligi aniqlandi.

Resume. This article reveals Uzbek phraseological units with a proper name, and considers them as phraseonyms. In this reasearch semantic and stylistic features of Uzbek phraseonyms are analyzed on the basis of folklore materials and phraseographic sources. In order to achieve the main objectives of the research descriptive analysis, characterization, and componential analysis methods are effectively used. The results of the analysis aimed at identifying the semantic, stylistic, and functional markedness of phraseonyms demonstrate that phraseonyms constitute unique and distinctive units within the rich phraseological system of the Uzbek language.

Резюме. В статье рассматриваются фразеологические единицы узбекского языка с компонентом собственного имени, которые интерпретируются как фразеонимы. Семантико-стилистические особенности данных единиц анализируются на материале узбекского устного народного творчества и фразеографических источников. В процессе исследования для достижения поставленных целей применяются описательный, характеристический и компонентный методы анализа. Результаты проведённого анализа, направленного на выявление семантической, стилистической и функционально-стилевой маркированности фразеонимов, свидетельствуют о том, что фразеонимы являются самобытными и уникальными единицами, занимающими особое место в богатом фразеологическом фонде узбекского языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IKKI TILLI LUG‘ATLAR: NAZARIY ASOSLAR VA TARIXIY YONDASHUV

Nashirova Shaxnoza Buriyevna,
Qarshi davlat universiteti
Xorijiy tillar fakulteti dekani
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Ma’lumki, kommunikativ kompetentlik, til bilish darajasi barcha davrlarda o‘ta yuqori baholangan, zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi hisoblangan. Bu, o‘z-o‘zidan, eng qadimgi davrlardayoq til o‘rgatish vositalarini tuzish, ularning saviyasini oshirish masalasining dolzarb bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Dunyo lug‘atchiligi tarixining muayyan bosqichida muayyan til negizida ikki yoki ko‘p tilli lug‘atchilikning taraqqiy etishi ushbu davrda shu til egasi bo‘lgan millatning taraqqiy etgani, shu millat tilining mavqei oshganidan darak beradi. Ikki tilli leksikografiya silsilasida eng qadimgi davrlardan to hozirgi kunga qadar muayyan tarixiy shart-sharoit – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, madaniy omillar taqozosi bilan turli tillar – shumer, lotin, anglosakson, fransuz, arab, ispan, ingliz, rus va boshqa tillar lug‘at tuzish uchun obyekt til maqomiga ega bo‘lgan.

Ikki tilli lug‘atlar o‘z davrida yo diniy, yoki mafkuraviy, yoki ta’limiy-o‘quv maqsadlarini amalga oshirishning strategik vositasi hisoblangan. Buni jahon leksikografiyasi, qolaversa, turkiy (jumladan, o‘zbek) leksikografiya fondiga oid ilk qo‘lyozma lug‘atlar, aniqrog‘i, ikki tilli lug‘atlarning shu davrning hukmdorlari, davlat boshliqlari, xalifalar, sarkardalarning

shaxsiy buyurtmasi, keyingi bosqichlarda davlat, hukumatning ijtimoiy buyurtmasi bilan tuzilgani ham tasdiqlaydi. Aniqroq qilib aytganda, ilk ikki tilli glossariy va lug‘atlarning dunyoga kelishiga antik davrlardayoq nafaqat sof ijtimoiy ehtiyoj – tillararo o‘zaro muloqot o‘rnatish, balki siyosiy, madaniy, diniy, mafkuraviy, iqtisodiy omillar ham sabab bo‘lgan.

Darhaqiqat, jahon sivilizatsiyasining bugungi bosqichida ham xalqaro hamkorliklarni rivojlantirish va jahon hamjamiyatida integrashiyalashuvni ta’minlash kontekstida fan va amaliyotning eng keng tarqalgan yo‘nalishlari – uzluksiz ta’lim sharoitida xorijiy tillarni o‘rganish va tarjimaga xos kompetensiyalarni o‘stirish, ilmiy-texnik axborot, ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasi, tarjimashunoslik hamda boshqa sohalarda **ikki tilli lug‘atlar yordamida hal etiladigan vazifalar ko‘lami har doimgidan ortib bormoqda.** Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita ikki tilli lug‘atlar va ularning nazariy asoslari xususidadir.

Leksikografiya tarixida lug`atlarning tipologik turlarga ajratilishi ikki tilli lug`atlarning yuzaga kelishiga sabab bo`ldi. Lug‘atlarning ilk tipologiyasi muallifi L.V. Sherbaning[1] tasnifida u tarjima lug‘ati deb nomlanadi va o‘xshash hamda farqli tomonlarini inobatga olib izohli lug‘atlarga qarama-qarshi qo‘yiladi. L.V. Sherbaning mazkur tipologiyasida tarjima lug‘ati ikki o‘rinda keltiriladi:

1. Oddiy (izohli yoki tarjima) lug‘at – ideologik lug‘at. Bu o‘rinda tarjima va izohli lug‘at tenglashtiriladi va oddiy lug‘at (обычный) turi sifatida ideologik lug‘atga qarama-qarshi qo‘yiladi.

2. Izohli lug‘at – tarjima lug‘ati. Bu o‘rinda esa обычный – oddiy lug‘at sifatida birlashtirilgan izohli va tarjima lug‘atlari bir tilli va ikki yoki ko‘p tilli ekaniga ko‘ra bir-biriga zidlanadi.

L.V. Sherba izohli lug‘atlarning, odatda, u yoki bu adabiy tilda uni meyorlashtirish yoki turli sabablarga ko‘ra ma’nosi tushunarsiz bo‘lib qolgan so‘zlarni izohlash, tushuntirish maqsadida paydo bo‘ladi va oxir-oqibat, adabiy tilni shakllantirish, shu bilan birga uni boyitish, eng muhimi, uning boyliklarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish uchun xizmat qilishini ta’kidlaydi. U tarjima lug‘atlarini ham “begona tilga mansub matnni tushuntirish zarurati bilan tuzilishi, bu ehtiyojni qondirish esa ko‘pincha xorijiy adabiy tilga mansub adabiy boyliklarni tarjima qilib o‘zlashtirish va bu orqali milliy tilni boyitish uchun xizmat qilishi” ni izohlaydi. Olim bu ikki tip lug‘at, ya’ni izohli va tarjima lug‘atini umumiy vazifa “ma’nosi tushunarsiz so‘z yoki matnni tushuntirish hamda adabiy tilni boyitish, meyorlashtirish” belgisi bilan birlashtirsa, “bir tilli yoki ko‘p tilli bo‘lishi, muayyan til egalari yoki bir necha til egalariga mo‘ljallangan” belgisi bilan o‘zaro farqlanishiga ko‘ra qarama-qarshi qo‘yadi.

Zamonaviy leksikografiyada ancha mukammalligi bilan ajralib turadigan V.V. Dubichinskiy[2] tipologiyasida *tarjima lug‘ati* termini uchramaydi. Sababi, L.V.Sherba tipologiyasidagidek, bu tipdagi lug‘atlar uchun tasnif asosi u yoki bu adabiy tilda ma’nosi tushunarsiz bo‘lib qolgan so‘zlarni izohlash, tushuntirish emas, balki lug‘at birligi ta’riflangan tillar soni hisoblanadi.

Jahon lug‘atchiligida mashhur leksikografik tipologiyalar, jumladan, Y.A. Malkil, B. Kyumada, L. Guilbert, D. Geraerts, F.J. Hausman, A. Rey, H.E. Viegand, V.V. Morkovkin, L.V. Apaje tipologiyalarida ham *tarjima lug‘ati* biror tasnif asosida uchramaydi. Fransuz leksikografi B. Kyumada[3] ham o‘zining leksikografik tipologiyasida lug‘atlarning uchta asosiy tipini ajratadi: “1) lug‘at uchun asos bo‘lgan tillarning soniga ko‘ra (bir tilli, ikki tilli yoki bir necha tilli); 2) “so‘z – narsa (tushuncha)” prinsipiga ko‘ra; 3) lug‘at korpusining hajmiga ko‘ra”.

P.N. Denisov esa o‘quv lug‘atlar tipologiyasiga bag‘ishlangan maqolasida o‘quv lug‘atlarni foydalanuvchining o‘z ona tilisi yoki xorijiy tilni o‘rganishiga mo‘ljallanganiga ko‘ra bir tilli va ikki tilli lug‘atlarga ajratadi. U o‘quvchining yoshi, uzluksiz ta’limning qaysi bosqichi uchun mo‘ljallanganiga ko‘ra ikki tilli lug‘atning maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab o‘quvchilari uchun (maktab lug‘at), oliy o‘quv yurti talabalari uchun (akademik o‘quv lug‘at), turli sohalarga mansub ta’lim oluvchilar uchun (terminologik lug‘at) hamda professional soha vakillari – radioboshlovchilar, sayyohlar, tijoratchilar uchun mo‘ljallangan ichki turlarini ajratadi.

Ikki tilli lug‘at nima, u qanday zarurat tufayli yuzaga kelgan, asosiy vazifasi nima, ***tarjima lug‘ati*** **va** ***ikki tilli lug‘at*** tushunchalari bir-biriga qay darajada aloqador, ularning lug‘atlar tipologiyasida o‘rni qayerda kabi masalalarga oydinlik kiritishga, ikki tilli leksikografiya tushunchasiga diaxron aspektda emas, bugungi kun nuqtayi nazaridan baho berishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, leksikografik tipologiyalar asosida lug‘atning maqsadi va oldiga qo‘yilgan asosiy vazifasi yotadi. Leksikografiyaga doir manbalarda lug‘atlarning turli funksiyalari ajratiladi. Ikki tilli lug‘at esa tarjima lug‘ati bilan emas, bir tilli lug‘at bilan qarama-qarshi qo‘yiladi: “Ikki tilli lug‘at yoki tarjima lug‘ati so‘z

[1] Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии. Избранные работы. – Л., 1958. Архив Петербургской русистики // https://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba9.htm

[2] Апажев М.Л. Лексикография: теория и практика. – Нальчик, 2005. с. 32–33.

[3] Guilbert L. Dictionnaires et linguistique: Essai de typologie des dictionnaires monolingues franзais contemporains // Langue franзaise 2. 1969. P. 4–29.

va jumlalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda foydalaniladigan maxsus lug‘atdir. Ikki tilli lug‘atda begona tildan foydalanishga ko‘mak berish maqsadida tarjimaga qo‘shimcha ravishda nutqiy vaziyat bilan bog‘liq ko‘chma ma’nolar, derivatsion, grammatik izohlar ham berilishi mumkin. Ba’zan ikki tilli lug‘atlar tarkibidan turg‘un birikmalar, mashq va topshiriqlar, noto‘g‘ri fe’llar jadvali, onomastik birliklar, geografik joy nomlari, lug‘atdan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar, metodik tavsiyalar ham joy oladi. Ikki tilli lug‘atdan farqli o‘laroq, bir tilli lug‘at so‘z va iboralarni shunchaki izohlaydi”[1].

Ingliz tilida ham ikki tilli lug‘atlarning tasnif asosi lug‘at materialining nechta tilda izohlanishi, talqin qilishiga tayanadi. Shu sababli ingliz leksikografiyasida ham tarjima lug‘ati termini kam ishlatiladi. Masalan, R.R.K.Hartman va G.Jeymslarning mashhur “Leksikografiya haqida lug‘at”ida *translation dictionary* **–** *tarjima lug‘ati* terminiga izoh uchramaydi. Lug‘at so‘zligida termin keltiriladi, ammo unga shunchaki ikki tilli lug‘atga ishora qiluvchi pometa qo‘yiladi:

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, leksikologiyada *tarjima lug‘ati* termini yangi leksikografik nashr emas, shunchaki tarjima qilingan, boshqa lug‘atni tarjima qilish yo‘li bilan o‘zlashtirilgan mahsulotni ham anglatadi. Bunday lug‘at bir tilli ham ikki tilli ham bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilida bu toifa lug‘atlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan, L.Y.Galpershteyn, M.O.Lukyanov, A.A.Nikishinlarning “Моя самая первая энциклопедия”si 2010-yilda “Cho‘lpon” nashriyotida T.Alimov tomonidan hech o‘zgarishsiz tarjima qilinib “Mening eng birinchi ensiklopediyam” nomi bilan, N.N.Malofeyevaning “Первая энциклопедия малыша. Для детей от 3-х лет” lug‘ati 2010-yilda “Cho‘lpon” nashriyotida tarjimon A.Akbarov tomonidan o‘zbek tiliga aynan o‘girib “Maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyasi” nomi bilan nashr etiladi. Tarjima lug‘at muallifining mualliflik huquqi saqlanadi, nashrga tayyorlovchi tarjimon maqomida bo‘ladi. Bunday lug‘atlarga nisbatan leksikografiyada *prototip lug‘atlar, kompilyativ lug‘atlar* ham deb qaraladi.

Shu sababli ingliz leksikografiyasida tarjima lug‘ati – ***translation dictionary*** va tarjima qilingan lug‘at – ***translated dictionary*** farqlanadi Hartman lug‘atida ular ikki alohida termin sifatida izohlanadi[2]:

translated dictionary

A dictionary which is the result of a translation of another dictionary.

Xullas, zamonaviy lug‘atlar tipologiyasida *tarjima lug‘ati* termini ikki toifa lug‘at – ikki yoki ko‘p tilli lug‘at hamda original bo‘lmagan, tarjima qilingan lug‘atni nazarda tutadi. Shuning uchun jahon leksikografiyasida ikki yoki ko‘p tilli lug‘atlarga tarjima lug‘at sifatida qarash ilmiy muomaladan chiqib bormoqda.

O‘zbek leksikografiyasida, xususan, o‘zbek tilining akademik leksikografiyasida lingvistik lug‘atlar tasnifida umumiy holatda *tarjima lug‘ati* termini keltiriladi: “Lingvistik lug‘atlar turli maqsadlarda tuziladi. Shu maqsad nuqtayi nazaridan ular quyidagi tiplarga bo‘linadi:

tarjima lug‘atlari;

izohli lug‘atlar;

tarixiy lug‘atlar...”.

Tarjima lug‘ati termini quyidagicha izohlanadi: “**Tarjima lug‘ati** lug‘at tiplari ichida eng uzoq tarixga egadir. Bunday lug‘atlarning taraqqiyoti boshqa tip lug‘atlarga asos bo‘lgan. Tarjima lug‘atlarining taraqqiyoti, faqat boshqa tip lug‘atlar kelib chiqishiga emas, balki mazkur lug‘atga xos bo‘lgan tillarning grammatikasi, leksikasi, fonetikasi kabilarga e’tibor berilishiga ham sabab bo‘lgan.

Tarjima lug‘atlari ikki tipga bo‘linadi: 1) ikki tilli; 2) ko‘p tilli”.

Mazkur tasnifdan tarjima lug‘ati begona tilni o‘rganish maqsadida tuzilgan lug‘atlarning umumiy nomini anglatib, ikki tilli yoki bir necha tilli bo‘lishi mumkinligi anglashiladi.

A.Madvaliyev[3] ham lug‘at tiplarini ajratar ekan, “bir tilga oid lug‘aviy birliklarni boshqa tilga o‘girib, izohlab beruvchi lug‘atlarni” tarjima lug‘ati toifasiga kiritadi.

O‘zbek tilida zamonaviy leksikografik yo‘nalishda bajarilgan tadqiqotlarda, xususan, B.Baxriddinovaning[4] monografiyasida o‘quv lug‘ati tiplari ajratilar ekan, tarjima lug‘ati tasnifdan alohida joy olmaydi. Muallif bir tilli, ikki tilli lug‘atlar uchun tasnif asosini “tili nuqtayi nazaridan” deb belgilaydi: “**Tili nuqtai nazaridan.** O‘quv lug‘ati tilni ona tili sifatida o‘rganuvchilar uchun yaratilgan bo‘lsa, bir tilli, xorijiy tilni o‘rganishni ham nazarda tutgan bo‘lsa, ikki, uch yoki undan ortiq tilli bo‘lishi mumkin. Bunday lug‘at tarjima lug‘ati ham deyiladi. Biroq zamonaviy o‘quv leksikografiyasida turli mavzudagi lug‘atning izoh bir necha tilda berilgan ko‘rinishlari ham uchraydi. Shu nuqtayi nazardan o‘quv lug‘atining quyidagi turlari ajratiladi:

[1] https://en.wikipedia.org/wiki/Bilingual_dictionary

[2] Malkiel Y. A Typological Classification of Dictionaries on the Basis of Distinctive Features // Problems in Lexicography / Ed. by F.Householder and S.Sapporta. – Bloomington, 1962. P. 3–24.

[3] Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. Тўплам. / Масъул муҳаррир Низомиддин Маҳмудов. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. –384 б. – Б.133.

[4] Баҳриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. − Самарқанд. 2020. − Б.252.; – Б. 52.

a) bir tilli o‘quv lug‘at; b) ikki tilli o‘quv lug‘at; v) ko‘p tilli o‘quv lug‘at”.

Yuqoridagi tahlillarimizdan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek leksikografiyasida ham *tarjima lug‘ati* – bir tilga oid lug‘aviy birlikni boshqa tilga o‘girib, izohlab beruvchi lug‘at; *bir tilli, ikki tilli yoki ko‘p lug‘at* – lug‘at birliklari tilqin qilingan tillarning soniga ko‘ra lug‘at turlari nomini anglatishi odatga kirib bormoqda.

L.V.Shcherba lug‘atlarning muayyan tipini ajratish uchun unga qarama-qarshi qo‘yishga asos bo‘lgan belgilar mavjud bo‘lishiga diqqat qaratgan edi: “Lug‘at tiplarini ajratish leksikografiyaning eng asosiy masalalaridandir. U muhim amaliy ahamiyatga ega, shu sababli doimo empirik bosqichda hal qilinadi. Shu bilan birga tiplarni ajratish bir qator nazariy qarama-qarshiliklarga ham asoslanadi”. Shuning uchun Shcherba tarjima lug‘atini izohli lug‘atga qarama qarshi qo‘ygan, ularning mohiyatini izohli lug‘at – tarjima lug‘ati dixotomiyasida ko‘rgan edi. Diaxron nuqtayi nazardan izohli va tarjima lug‘atlarining qarama-qarshi belgilariga ko‘ra umumlashtirishi asosli. Biroq zamonaviy leksikografiyada izohli lug‘at turlari shu qadar ko‘payib ketdiki, ularning o‘zi tillar soniga ko‘ra bir yoki bir necha tilli bo‘lishi mumkin. Sinxron nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, tarjima lug‘ati har qanday izohli lug‘atning zidi bo‘la olmay qoldi. Shu bois zamonaviy tipologiyalarda ikki tilli lug‘atni tarjima lug‘atiga qarama-qarshi qo‘yish an’anasi uchramaydi. Bu esa lug‘atlar tipologiyasida yangi tasnif asosi lug‘at korpusi asoslangan tillar soniga ko‘ra lug‘at turlarini ajratish zaruratini yuzaga keltirdi. Bir tilli, ikki tilli, uch tilli, ... ko‘p tilli lug‘atlar bu tasnifdan umumiy va xususiy belgilarga egaligiga ko‘ra joy ola oladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslikda ikki tilli lug‘atlarning ilmiy jihatdan tadqiq etilishi tillar orasidagi madaniy differensiativ farqlarni ochib berishga, ulardagi mavjud o‘xshash va farqli xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. An’anaviy ikki tilli lug‘atlarning faqatgina so‘zlik va so‘zlik maqolasi asosida shakllantirilsa, zamonaviy tilshunoslikda ushbu lug‘atlarni tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari integratsiyasiga zamin yaratadi.

Rezyume. Ushbu maqolada ikki tilli lug‘atlar xususida so‘z yuritiladi. Ta’kidlash lozimki, ikki tilli lug‘atlar nafaqat an’anaviy, balki zamonaviy tilshunoslikning ham tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi. Ikki tilli lug‘at leksik birliklari tarkibidan o‘rin olgan so‘zlik va lug‘at maqolalarini zamonaviy lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish masalalari bevosita maqola davomida tahlilga tortiladi. Ikki tilli lug‘atlar, xususan, o‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlar tarkibiy xususiyatlari, undagi mavjud muammolarni ko‘rib chiqish hamda sohaviy yechimlar taqdim etish ushbu maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad hisoblanadi. Ikki tilli lug‘atlarning nazariy asoslarini o‘rganish hamda lingvistik yondashuvlarini ishlab chiqish kelgusi tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Resume. This article discusses bilingual dictionaries. It should be noted that bilingual dictionaries have become an object of research not only in traditional but also in modern linguistics. The issues of analyzing vocabulary and dictionary articles that are part of the lexical units of bilingual dictionaries from a modern linguistic point of view are directly analyzed throughout the article. The main goal of this article is to consider the structural features of bilingual dictionaries, in particular, Uzbek-English, English-Uzbek dictionaries, the existing problems in them, and to provide sectoral solutions. The study of the theoretical foundations of bilingual dictionaries and the development of linguistic approaches serve as a foundation for future research.

Резюме. В данной статье рассматриваются двуязычные словари. Следует отметить, что двуязычные словари стали объектом исследования не только в традиционной, но и в современной лингвистике. В статье непосредственно анализируются вопросы анализа лексики и словарных статей, входящих в состав лексических единиц двуязычных словарей, с точки зрения современной лингвистики. Главная цель статьи – рассмотрение структурных особенностей двуязычных словарей, в частности, узбекско-английских и англо-узбекских словарей, существующих в них проблем и предложение отраслевых решений. Изучение теоретических основ двуязычных словарей и разработка лингвистических подходов служат основой для дальнейших исследований.